

Mamur Umarov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası
professori, falsafa fanlari nomzodi
E-mail: umarovmamur@gmail.com*

JADID DRAMASI: "TO'Y" NOMLI TEATR RISOLASI HAQIDA

***Annotatsiya.** Maqola jadid adabiyotining muhim namunalaridan biri bo'lgan "To'y" nomli teatr risolasi haqida. Asarda milliy fojia sifatida qaraladigan savodsizlik, manmanlik, yaltoqlik, isrofgarchilik kabi ijtimoiy illatlarga qarshi kurash g'oyalari ochib berilgan. Shuningdek, sahna asarining tuzilishi, voqealar ketma ketligi, personajlar xarakteri va jadidlarning maorif, taraqqiyot g'oyalari badiiy jihatdan tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** jadid, teatr, pyesa, tahlil, maorif, savodsizlik, isrofgarchilik, milliy fojia, to'y.*

THE JADID DRAMA: A THEATRICAL BOOKLET ENTITLED "THE WEDDING"

***Abstract.** This article analyzes "To'y" ("The Wedding"), one of the significant examples of Jadid literature. The play highlights the struggle against social vices such as illiteracy, arrogance, flattery, and wastefulness, which are portrayed as manifestations of a broader national tragedy. The study offers a literary analysis of the dramatic structure, plot development, and character portrayal, while also examining the Jadids' ideological views on enlightenment, social reform, and progress.*

***Keywords:** jadid, theatre, play, analysis, education, illiteracy, wastefulness, national tragedy, wedding.*

XX asr boshlarida o'zbek milliy teatr san'ati jadidlar harakati asosida shakllanib, ijtimoiy hayotdagi eng dolzarb masalalarni yorituvchi vositaga aylandi. Jadid dramaturgiyasi millat taraqqiyoti yo'lida to'siq bo'layotgan savodsizlik, ma'rifatsizlik, isrofgarchilik, urf-odatlardagi ortiqcha marosimlar, manmanlik va

yaltoqlik kabi illatlarni sahnaga olib chiqib, tomoshabin qalbida ibrat ko'zi ochilishini, g'ururini uyg'otishni maqsad qildi. Shu nuqtayi nazardan, 1914-yilda yaratilgan "To'y" dramasi jadid teatr san'atining eng muhim asarlaridan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Mazkur asar ijtimoiy qatlamlarning keng doirasini – boylardan tortib gadogacha, mansabdorlardan oddiy xalqgacha bo'lgan obrazlarni sahnaga olib chiqib, ularning o'zaro munosabatlari orqali milliy fojiani namoyish qiladi. "To'y" dramasi o'z davrida jamiyatning ichki muammolarini ochib beruvchi badiiy hujjat bo'lishi bilan birga, jadid dramaturgiyasining estetik va ijtimoiy imkoniyatlarini ham yaqqol namoyon etadi. Asardagi jadidlarning millatni "ibrat ko'zi"ni ochish g'oyasi orqali tomoshabinga nafaqat tanqidiy nigoh, balki ma'rifatparvarlik ruhida xulosa chiqarish imkoniyati beriladi.

Nusratulla Qudratulla va Xoji Muinning hamkorlikdagi badiiy ijod natijasi sifatida yuzaga kelgan "To'y" dramasi o'zbek jadid teatrining shakllanish jarayonida yangi bosqichni belgiladi. U sahna orqali millat taraqqiyotining asosiy masalalarini ko'tarib chiqqani, ma'rifat va ilmni jamiyat rivojining bosh yo'li sifatida talqin etgani bilan qadrlidir. Shuning uchun, "To'y" nafaqat o'z davrining ijtimoiy-estetik hodisasi, balki bugungi kunda ham jamiyatdagi muammolarni tanqidiy anglash va insonlarni ma'naviyatini yuksaltirishda muhim manba sifatida o'rganilishi lozim.

Pyesaning tahliliga keladigan bo'lsak, personajlarni xarakterlari rang-barang hamda tabiiy. Masalan, Mirzo ismli ziyoli "To'y" xarajatlari 15 ming so'mga yetganini eshitib, Boy o'g'lining o'qishiga to'ydan mablag' orttirib qolishini va yanada tejab, zaxiraga ham mablag' olib qolishini maslahat beradi. Boy uni haqorat qilib: "Ota-bobolarimizdan qolgan urfga barham beraymi? Shapka kiyib, yana nasihat beradi, – deydi. Oqsoqol esa, Boyga "yaltoqlik" qilib, "sani shu odobsizliging uchun mahalladan chiqardik," – deb bankirga fотиha beradi. Bu janjaldan so'ng hamma tarqab ketadi.

"Maslahat oshi" voqeasi shunchalar urf-odat, irimlarga boyki, yaxshiyam mualliflar shularni teatr uchun yozib beribdi degan xulosaga kelasiz. Millat rivoji

uchun to'siq bo'layotgan savodsizlik, manmanlik, yaltoqlik, "ko'cha"dagilarga aralashgan yoshlar maishati, yangi fikrlilarning yolg'izlanib qolishi, barcha mavzular mualliflar uchun "milliy fojia"dir. Mualliflar "Maslahat oshi"dagi taradduddan so'ng, mantiqan "To'y" voqeasini tomoshaga aylantiradi.

Sahna asarining ikkinchi voqeasi "To'y" bilan boshlanadi. Mualliflar to'yning musiqiy bezagini sahnalashtiruvchilarga qoldirgan, shekilli. Odatda, bir surnay, to'rt karnay, bir doira, bir nog'ora bunday tadbirlar to'y tantanasining bezagi hisoblangan. Voqeani qayerda sodir bo'layotgani belgilanib "hovli manzarasi" degan izoh berilgan. Voqeaga ruhiyat berish uchun mualliflar bir tarafda 3–4 stul, boy, oqsoqol, domla va to'ybola o'tiribdi. Bu joyda ham to'ybolaning kiyimlari mahalliy aholi udumiga bog'liq bo'lgani uchun belgilanmagani va sahnalashtiruvchilarga havola etilgani to'g'ri deb hisoblaymiz.

Voqeaning vaqti aniq berilgan. Domla, janob Boy odamlarni soat nechaga xabar qilgansiz? Boy ba'zilarini sakkizga, boshqalarini o'nga, deydi. Javob mantiq bo'yicha to'g'ri. To'yxonaga hofiz va "Juvon" ertaroq kirib keladi. Boy ularni kutib oladi. "Juvon" boy bilan quchoqlashib ko'rishadi, ammo "boshqalari bilan qo'l berib ko'rishar" kabi ibora yaltoqlikning ochiq namoyishi edi. Juvonning boy, boyvachcha, domla va oqsoqol bilan muomalasi, choyqand qilib, barchaning ko'nglini olishi kabi illat ham tarix sahifalarida qolgan. Agar muallif ular shu sahna asariga ba'zi illatlarni kiritmaganida bunday urflar borligini bilmagan bo'lar edik. "To'y"ga shahar boylari va a'yonlarni kirib kelishi, ular ham "juvon" xizmatidan bahramand bo'lishi alohida izohlanadi. A'yonlar kimga veksal berishi, kimni sarson qilishni, yana kimni yalintirishni shu joyda kelishib olishgach, palov keltirildi. Taboqlar olinib, to'nlari kiygiziladi. Mehmonlar kuzatiladi. Bu tomosha ham tomoshabinni hayratga solsa kerak. Sababi, bu marosimlarni bajarishi jiddiy intizom hamda mantiqli harakatni talab qiladi. So'ngra, yana mullalar, avomlar, fotiha va duo izohlanadi. Bular ham ishonchli harakatlarga tayanishi lozim. Shu tantanaga mualliflar gadoyini kiritadi. Boy uni haqorat qiladi, haydaydi, u esa yalinadi.

“To‘y”dagi bu darajadagi tabaqalashuvni ko‘rganlar, albatta, tegishli xulosa chiqarishi aniq.

“To‘y”ning eng tuban voqeasi “Mayxo‘rlik majlisi” deb nomlangan. U tartib bo‘yicha uchinchi sahna ko‘rinishidir. Demak, ikkinchi voqea “To‘y” kunduz kuni, boyning hovlisida sodir bo‘lgan bo‘lsa, uchinchi voqea “mayxo‘rlik” boyning mehmonxonasida, mantiqan kech kirganda boshlanmoqda. “Padarkush”da “bo‘z bolalar” – savodsiz, hunarsiz, maishatga berilgan yoshlar edi. “To‘y”da esa “bo‘z bolalar”ning rahbari 40 yoshli, qolganlari 25 hamda 20 yoshli yigitlar. Ular “ko‘cha”ni nomidan ish yuritadigan, puli borlarni qo‘rqitib yashaydigan, ular hisobidan maishat qiladigan bezorilar. Muallif ularning tubanliklarini alohida sahnaga olib chiqib, voqeani “Mayxo‘rlik majlisi”, deb nomlagani e‘tiborga loyiq. Bu milliy fojining yangi tus olgan, tubanlashgan ko‘rinishi edi. Bu mavzu alohida sahnaga olingandagina ularning tubanliklari to‘liq ochilishini muallif his qilgan.

May va “juvon” masalasi uy bazmiga aylanib, mualliflar izohi bilan g‘azal o‘qishib, qarsak urarlar, juvon o‘ynar, boy ila o‘g‘li ular davrasida qolib juvonni chakkasiga bir necha qog‘oz pul yopishtirar kabi harakatlar ziyofatning rivojini belgilaydi. Bo‘z bolalarning “rahbari” juvonga “ukajon” deb murojaat qilishi, bu tubanlikka yanada oydinlik kiritadi. “Juvon”ni ikki bo‘z talashib, mastlarning janjallashishi va bazmni to‘polonga aylanishi ham izchillik bilan izohlangan. Orzuqul qo‘liga pichoq olib, O‘lmasni quvib ketishi, qolganlar ular ortidan yugurishi voqeani mantiqan yakunlaydi. Pyesani bu voqeasi yakuniga “parda” deb nuqta qo‘yiladi.

Parda yana ko‘tarilur va jar solish orqali “To‘y”ning tantana darajasi alohida e‘lon qilinadi. Eshnazar sahnaga chiqib, jar solar: “Dushanba, seshanba, chorshanba kunlari “Afrosiyob”da ko‘pkari bo‘ladur. Ko‘rmaganlar armonda qoladur”. Parda tushar bu sahna, albatta, “jar solish” voqeasi deb hisoblanib, mustaqil ko‘rinishdir. Lekin mualliflar uni voqea sifatida ajratmagan. Sababi, “maslahat oshi”da ko‘pkari haqida alohida takliflar aytilgan. Tomoshabin rejadagilar amalga oshmoqda, faqat ko‘pkari nima bo‘ldi ekan?, degan paytda “jar solinishi” o‘tirganlar tasavvurida

voqeani jonlantiradi va “To’y”ning darajasi haqida ma’lumot beradi. Shu jihatdan mualliflar bu jarayonni tomoshabinlarga eslatgani mantiqan to’g’ri va u “jar” shaklida e’lon qilingani ham maqsadga muvofiq.

Nihoyat, yakuniy voqeaga yetib keldik. Bu voqeani “hisob-kitob” deb nomlash mumkin. Sabab, to’ydan so’ng uy egasi o’tgan hodisalarni tahlil qiladi. Mualliflar ham shu mantiqqa asosan Boyga sodir bo’lgan “To’y” darajasini muhokama qiladiradi. Faqat manzil o’zgargan. Demak, voqea to’yning yakunida boyning do’konida sodir bo’ladi. Qachon? degan savolga ertalab, barcha do’konlar ochiladigan payt, deb javob bersa to’g’ri bo’ladi. Mualliflar to’ydan so’ng Boyning kiyimi o’zgarganini eslatib: “Ko’hna libos kiygan”, – deydi. Bu remarka ikki ma’noni anglatadi, birinchisi to’y o’tganini, ya’ni To’y tadbiriga Boy obro’siga yarasha kiyinganini, ikkinchisi, uni bor boyligidan ayrilganini tomoshabin, uning kiyimidan anglashi lozimligini eslatadi.

“To’y”ga o’n besh ming sarflashni rejalashtirgan boy, yanada g’ururlanib do’kondagi zaxirani ham ishlatib yuborganini “do’konda” anglashi ustiga, Moskovskiy bankka besh ming to’lov vaqti kelganini bilib, fig’oni chiqadi. Natijada Boy xizmatkoriga nasiyalarni yig’ib kelishni, yetmaganiga do’sti Xidirboydan qarz olib kelishini tayinlaydi. Xizmatkori chiqib ketgach, bu bo’shliqni dramaturglar to’ldiradi. Bank vakili bo’lgan Mirzo povestka olib keladi. Bank vakili ketgach do’konga xaridor keladi.

Mualliflar “Xarid” voqeasi bilan “sahnada turgan miltiq otilishi kerak” degan teatr aqidasiga amal qilib, xaridorni do’kondagi chitlarni tanlashga kiritadi. Asabiylashgan Boy: “Qirq ikki pul beraman”, – degan xaridorni haydab soladi. Ijro uchun bu xabar ahamiyatli, sababi bu davrda bir to’p chit qanday narxda bo’lganligini bilib olinadi. Qarzga botib qolgani uchun asabiylashgan Boy oldiga ko’pkarining shov-shuvini Eshnazar olib kiradi. U Boyning “To’y”idagi ko’pkari, avvalgilariga qaraganda eng zo’ri bo’lganini, o’n kishi otdan yiqilganini, to’rttasi o’lganini, oltitasini oyog’i singanini zavq bilan so’ylaydi. Bu xabardan quvonishi

lozim bo'lgan Boy esa, to'yga 19 ming sarflaganini, hozir bankka 5 ming bermasa, do'koni musodara bo'lishini aytib yig'laydi.

Voqealar rivojlana borib, o'zining avj pardasi tomon intiladi. Xizmatkor na nasiyalarni yig'adi, na qarzga pul olib keladi. Boyda esa, "Oshingni yeydi, to'ningni kiyadi, boshingga ish tushganida o'zini tortadi" kabi hayotiy fikrlar tug'yoni boshlanadi. Boy so'nggi chorani qo'llaydi yonidagi 5 ta 5 ming so'mlik veksallarni bankka qo'yib, qarz olib, to'lov qilishini xizmatkoriga buyuradi. Xizmatkor javob olib kelgunga qadar o'tadigan vaqt ham sahnalashtiruvchilarga havola. Bankdagilar puli tugagan, qarzga botgan Boyning veksalini olmaydi. Voqea tobora keskinlashib do'konga sudebniy pristav va politsiya kirgach, tomosha avj nuqtaga ko'tariladi. Boy faryod qilib, o'zini do'kondagi chit to'plami ustiga tashlaydi, u mollarini ro'yxatga olgani qo'ymaydi. Shu to'polon ustiga bank vakili Mirzo kiradi va xalqqa qarab: "Turkiston musulmonlari, ilmsizlik oqibatidagi nodonlikdan qachon qutulamiz? Qarzga kirib to'y, aza, ko'pkari, sharobxo'rlik, juvonbozlik kabi urf va rasm bo'lgan isroflarga barham berib, pulimizni ilm va maorif, din hamda millat rivoji yo'liga sarf qilsakkina taraqqiy topgan millatlar qatoriga ko'tarilamiz", – degan ma'noda ma'ruza qilib, fikrini "Alloh taolo jumla musulmon birodarlarimizga ibrat ko'zi bersin", – deb yakunlaydi. Jadidlar ilmni va maorifni rivojlanishning asosi deb bilgan bo'lsa, teatrlar tashkil qilganlar tomoshani ko'rganlar ro'parasiga "oyna" qo'yib, ularga "ibrat ko'zi" tilaydi. Ular tomoshadan o'ziga tegishli xulosalar chiqaradi, deb umid qiladi. Demak, "ibrat ko'zi" – bu ziyolilikka xos farosat degan xulosaga kelimiz.

Jadid dramasini teatr san'ati talablari asosida o'rganish jarayonida "Padarkush"dan so'ng yozilgan "To'y" ijtimoiy jihatdan juda keng qamrovli bo'lib, avvalgi savodsiz, hunarsiz, rejasizlikdan zerikkan yoshlar maishatga berilgan "bo'z bolalar" holida izohlangan bo'lsa, endi ular millat tanasiga yopishgan kana, tekinxo'r bezorilar, puldorlarni qo'rqitish evaziga maishat qiladigan "bo'z bolalar" darajasiga ko'tarilgan. Shuningdek "To'y"da jamiyatning barcha qatlami qatnashadi. Unda yuqori mansabdordan tortib, toki gadogacha, bankirlardan to politsiyagacha,

oddiy odamlardan, toki Xoji otagacha maqsadga muvofiq qamrab olingan. Eng muhimi barcha personajlar jadidlar g'oyasi jamiyatning yetakchi kuchiga aylanganini anglashga ko'maklashadi. "To'y"ni mukammal yozma sahna asariga aylanishida Nusratulla Qudratulla qatori Xoji Muinning hissasi yetakchi bo'lganini dalillagan Shuhrat Rizayev fikriga qo'shilgan holda, uni mustaqil ijod qilgan sahna asarlariga ham murojaat qilishdan avval uning bu davrdagi mavqeiga to'xtalamiz. Nusratilla Qudratilla "To'y" mavzusi dolzarbligini anglab, uni qog'ozga tushirgach, Xoji Muinga uchragani, uni omadini belgilaydi. Sababi 30 yoshli Xoji Muin fors, arab, turk va rus tillarida erkin so'zlay va yoza oladigan savodli adib sifatida e'tirof etilgach, Behbudiyning "Samarqand" gazetasi hamda "Oyna" jurnalida faoliyat yurita boshladi. Ayniqsa, "Oyna" jurnali ma'rifat va madaniyatni targ'ib qilishda muhim o'rin tutgan nashr edi. Unda millat taqdiri, tarixiy xotira, til va adabiyot masalalari, shuningdek, xalqaro vaziyatga doir maqolalar va munozaralar muntazam yoritib borilgan [1, 227-b]. Xoji Muin ijodkor va mohir tashkilotchi sifatida samarali faoliyat ko'rsatib, Behbudiyning rag'bati va hurmatini qozongan [2, 463-b]. Demak, Xoji Muin 1913-yildan matbuotda ishlay boshlagani uni 1914-yilda yozilgan "To'y" nomli sahna asarini muallifidan qabul qilib, uni ijtimoiy jihatdan keng qamrovli shaklga keltirish mumkinligiga ishonib, muharrir sifatida mantiqan tizimga kelishiga sabab bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin. "Xoji Muin 1915-yili elning sevimli jurnali bo'lgan "Oyna"da keng miqyosdagi xabarlarni nashr qilish bilan mashg'ul bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Muallifning 1915-yilda ketma-ket "Eski maktab, yangi maktab" "Mazluma xotin", "Ko'knori" kabi sahna asarlari dunyo yuzini ko'radi" [3, 463-b].

Mualliflarning "To'y" nomli teatr risolasi jadid teatr san'atining eng yetuk sahna asarlaridan biri sifatida o'zbek adabiyoti tarixida alohida o'rin tutadi. Pyesa nafaqat badiiy jihatdan mukammal sahna asari, balki o'z davridagi ijtimoiy muammolarni keng qamrovli ochib beradigan muhim hujjat hamdir. Dramaturglar tomosha orqali jamiyatning barcha qatlamlarini, ularning o'zaro munosabatlari

orqali milliy fojia sifatida ifodalagani ham yosh avlod uchun ziyolilarimiz tinimsiz da'vat qilgani aniq bo'ladi.

Xulosa shuki, Nusratulla Qudratulla va Xoji Muinning hamkorligi asarning ijtimoiy-falsafiy chuqurligini ta'minladi. Xoji Muinning muharrir sifatidagi faoliyati sahna asarini mantiqiy tizimga keltirdi va uni yanada keng qamrovli shaklga olib keldi. Asardagi "ibrat ko'zi" tushunchasi jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyasini ifodalab, tomoshabinlardan o'z xulosalarini chiqarishlarini talab qiladi. "To'y" dramasi jadidlar harakatining teatr san'ati orqali millat taraqqiyoti yo'lidagi sa'y-harakatlarining yorqin dalili bo'lib, dramaturgiyadagi bu an'analar keyingi o'zbek teatr san'atining shakllanishiga mustahkam poydevor yaratdi. Asar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan holda, jamiyatdagi muammolarni tanqidiy anglashga va ziyolilik farosatini rivojlantirishning muhim manbai sifatida qaralmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobonazarova G. *XX asr boshlaridagi milliy uyg'onish adabiyoti vakili: Mahmudxo'ja Behbudiy. "Jadidlarning o'zbek tili, adabiyoti va san'ati rivojidadagi o'rni" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.* – Toshkent: 2025-yil 12-iyun. – B. 224-227.
2. Qosimov B. *Milliy uyg'onish adabiyoti.* – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – 300 b.
3. Rizayev Sh. *Jadid dramasi.* – Toshkent: Sharq, 1997. – 318 b.